

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№1 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-1>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук
(Doctor of sociology, DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01–Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02–Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллович
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03–Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна

кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариева Аълохон Нуриддиновна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович

доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Махкамов Қодиржон Одилжонович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович

доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT


1. Karimov Bobir “MAHALLABAY” ISHLASH TIZIMI NEGIZIDA INSON SALOHİYATINI RO‘YOBGA CHIQRISH KOMPETENSIYALARI.....	5
2. Kulbekova Nasiba INSON SALOHİYATINI YUKSALTIRISHDA TA’LIM TIZIMINING O‘RNI.....	12
3. Инаков Комил, Абдугафурова Чарос МОЛОДЕЖЬ КАК РЕСУРС РАЗВИТИЯ СОВРЕМЕННОГО ОБЩЕСТВА.....	19
4. Узакова Зарина ПОТРЕБНОСТИ ЛИЦ С ИНВАЛИДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ ЧРЕЗВЫЧАЙНЫХ СИТУАЦИЙ (ЧС): РОЛЬ СОЦИАЛЬНОГО КАПИТАЛА.....	27
5. Dulanbayeva Oygul MUALLIFLIK STRATEGIYASI ZAMONAVIY MUTOLAA DIDINI SHAKILLANTIRISH MEKANIZMI SIFATIDA.....	34
6. Hojiyev Zavqiddin DAVLAT FUQAROLIK XIZMATIDA MANFAATLAR TO‘QNASHUVINING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	40
7. To‘raev Odiljon AHOLI SALOMATLIGINI SAQLASH ORQALI IJTIMOIIY XAVFSIZLIKNI TA’MINLASHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI.....	50
8. To‘raxo‘jaeva Ra‘no DAVLAT BOSHQARUV ORGANLARI XODIMLARINING MAXSUS KOMPETENSIYALARI.....	59
9. Abdikadirova Nigora INSON SALOHİYATI: NAZARIY YONDOSHUVLAR.....	66
10. Tadjikhojaev Botir DAVLAT BOSHQARUVIDA XARIZMATIK SHAXSLAR FAOLIYATINING SOSIOLOGIK TAHLILI.....	71
11. Xolmurodov G‘ulom O‘ZBEKISTONDA MAHALLA FAOLIYATI SAMARADORLIGINI SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	78
12. Axmedova Shaxnozaxon OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR.....	91

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Axmedova Shaxnozaxon,
O‘zbekiston Milliy universiteti,
Sotsiologiya kafedrasida tayanch doktoranti
e-mail: a.shaxnoza@nuu.uz

OILA-NIKOH MUNOSABATLARINI O‘RGANISHDAGI SOTSIOLOGIK NAZARIY YONDASHUVLAR

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.15132722>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada oila-nikoh munosabatlarini o‘rganishdagi asosiy sotsiologik nazariy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan va ularning oila institutini tadqiq etishdagi ahamiyati o‘rganilgan. Ramziy interaksionizm, strukturaviy funksionalizm, konflikt nazariyasi va boshqa yondashuvlar asosida oilaviy munosabatlar o‘rganilgan. Bu nazariyalar oila-nikoh munosabatlarini turli jihatlarini o‘rganishga, jamiyat barqarorligini ta‘minlash, avlodlar o‘rtasidagi uzviylik, gender munosabatlarini tushunish, ajralishlar va uning oqibatlarini anglash, oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarnitahlil qilish, sotsial o‘zgarishlarni kuzatish, global o‘zgarishlar kontekstida oilani o‘rganish imkonini beradi. Hozirgi kunda O‘zbekistonda oila-nikoh munosabatlarini o‘rganish va sotsiologik jihatdan tadqiq etish dolzarbdir. Shu sababli ham muallif oilaviy munosabatlardagi o‘zgarishlarni nazariy jihatlarini o‘rganishda bu yondashuvlarga murojaat qilgan.

Kalit so‘zlar: oila-nikoh munosabatlari, rol, struktura, yondashuv, ramziy interaksionizm, strukturaviy funksionalizm, tanqidiy nazariya, ratsional tanlov, tizimlar nazariyasi, konflikt nazariyasi.

Ахмедова Шахнозахон,
Национальный университет Узбекистана,
Базовый докторант кафедры Социологии
e-mail: a.shaxnoza@nuu.uz

СОЦИОЛОГИЧЕСКИЕ ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ К ИЗУЧЕНИЮ СЕМЕЙНО-БРАЧНЫХ ОТНОШЕНИЙ

АННОТАЦИЯ

В данной статье рассматриваются основные социологические теоретические подходы к изучению семейно-брачных отношений и исследуется их значение в исследовании института семьи. Семейные отношения изучались на основе символического интеракционизма, структурного функционализма, теории конфликтов и других подходов. Эти теории позволяют изучить различные аспекты семейно-брачных отношений, обеспечить стабильность общества, преемственность поколений, понять гендерные отношения, понять развод и его последствия, изучить социально-экономические проблемы в семье, проследить социальные изменения,

изучить семью в контексте глобальных изменений. В настоящее время изучение и социологическое исследование семейно-брачных отношений в Узбекистане является актуальным. Именно поэтому автор прибегает к этим подходам при изучении теоретических аспектов изменения семейных отношений.

Ключевые слова: семейно-брачные отношения, роль, структура, подход, символический интеракционизм, структурный функционализм, критическая теория, теория рационального выбора, теория систем, теория конфликта.

Akhmedova Shakhnozakhon,
National University of Uzbekistan,
Basic doctoral student of the Department of Sociology
e-mail: a.shaxnoza@nuu.uz

SOCIOLOGICAL THEORETICAL APPROACHES TO THE STUDY OF MARITAL RELATIONS

ABSTRACT

This article examines the main sociological theoretical approaches to the study of family-marriage relations and explores their importance in the study of the institution of the family. Family relationships have been studied based on symbolic interactionism, structural functionalism, conflict theory, and other approaches. These theories allow the study of various aspects of family-marriage relations, ensuring the stability of society, continuity between generations, understanding gender relations, understanding divorces and its consequences, studying socio-economic problems in the family, observing social changes, studying family in the context of global changes. Currently, the study of family-marriage relations and sociological research are relevant in Uzbekistan. For this reason, the author has also resorted to these approaches in the study of theoretical aspects of changes in family relationships.

Keywords: family-marriage relations, role, structure, approach, symbolic interactionism, structural functionalism, critical theory, rational choice, systems theory, conflict theory.

KIRISH

Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasining “Oila, bolalar va yoshlar” deb nomlangan XIV-bobi 76-moddasida ifodalanishicha: ”Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘inidir hamda u jamiyat va davlat muhofazasidadir” [1]. Ushbu norma mazmun-mohiyatidan anglashiladiki, oila instituti falsafiy-huquqiy, ijtimoiy-biologik va ma’naviy-ahloqiy kategoriyadir. Bu degani, xalqimizning oilaga taalluqli milliy an’ana va qadriyatlari hamda oilaning to‘laqonli rivojlanishi uchun davlat ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa zarur shart-sharoitlarni yaratib beradi. Oila bilan bog‘liq qoidalarga qiyosiy-tahliliy nazar shundan dalolat beradiki, Yangi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Fuqarolik va Oila kodekslari, shuningdek boshqa tegishli normativ hujjatlarimizning xalqparvarligiga, ularning milliy qadriyatlarimiz va an’analalarimiz bilan uyg‘unligiga amin bo‘lamiz.

Oila jamiyatning asosiy bo‘g‘ini va eng yirik ijtimoiy institut hisoblanadi. U shaxslar o‘rtasidagi qarindoshlik, nikoh, farzandlik aloqalari asosida tuzilgan guruh bo‘lib, uning jamiyat uchun katta ahamiyatga ega funksiyalari mavjud. Oila bu asrlar davomida shakllanib, sayqallanib o‘z evolyutsion jarayonini bosib o‘tgan ittifoqdir va o‘zining davri va hududiga qarab turlicha ko‘rinishda bo‘lgan. Sharqda oilani axloqiy, diniy va ma’naviy jihatdan qadrlagan bo‘lsalar, G‘arbda esa oilaga jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy tizimining ajralmas qismi va shaxsiyatni shakllantiruvchi makon sifatida qaralgan. Buni biz turli manbalarda, faylasuflar va olimlarning oila haqida bildirgan fikrlarida ham ko‘rishimiz mumkin. Al-Farobiy oila haqida quyidagi fikrlarni bildirgan – “Oila insoniy taraqqiyot va fazilatli jamiyatning zaruriy qismi. Shaxsning ma’naviy va axloqiy tarbiyasi uchun asosiy muhit bu oila. Yaxshi tarbiya va qadriyatlar oilada shakllanadi va jamiyatning kelajagi oilaning axloqiy qadriyatlari bilan bog‘liq” [2].

Imom G'azzoliy esa oilaga diniy va axloqiy nuqtai nazardan qaragan. Uning qarashlarida, oila – Islom jamiyatining asosiy tarkibiy qismi bo'lib, bu yerda er-xotin bir-biriga hurmat va sevgi bilan munosabatda bo'lishi kerak va bolalar tarbiyasi ota-onaning eng muhim vazifalaridan ekanligi haqida fikrlar bildirilgan [3]. Ibn Sino esa, oila va nikohni ijtimoiy va shaxsiy farovonlikning asosi, inson hayotidagi tabiiy ehtiyojlarning qondirilishi, avlodlarning davom ettirilishi va tarbiyaning asosiy manbai deb bilgan. Nikoh va oila ijtimoiy barqarorlik va sog'lom jamiyat uchun muhim deb hisoblagan [4].

Oila haqidagi ilk tasavvurlar va qarashlar ancha ilgari Sharqda shakllangan bo'lishiga qaramay uning ilmiy tadqiq etilishini G'arb olimlarining asarlari va tadqiqotlarida ko'rishimiz mumkin. Ular oilaga ko'proq ijtimoiy va psixologik nuqtai nazar bilan qaraydilar va oilaning jamiyatdagi strukturasi va individuallikdagi o'rni haqida tahliliy yondashuvlar taqdim etadilar. Bu yondashuvlar ayni vaqtdagi tadqiqotlar uchun ham asosiy poydevor vazifasini o'taydi. Shu sababli ularni chuqurroq o'rganish va tahlil etish izlanuvchilar uchun ahamiyatli hisoblanadi.

METODOLOGIYA

Oila-nikoh munosabatlarini sotsiologik jihatdan o'rganishda turli nazariy yondashuvlarga murojaat qilish zarur. Simvolik interaksionizm, struktura-funksionalizm, tanqidiy, konflikt nazariyasi, tizimlar, ratsional tanlov, o'zgarish va transformatsiya nazariyalari sotsiologiyada oila-nikoh munosabatlarini o'rganishdagi asosiy nazariy yondashuvlar hisoblanib, ular turli aspektlarga e'tibor qaratadi. Bu nazariy yondashuvlar orqali oila-nikoh munosabatlarini ijtimoiy jihatlarini chuqur tushunishga yordam beradi.

Oilaning jamiyatdagi rolini ko'rib chiqayotganda, funksionalistlar oila muhim ijtimoiy institut va ular jamiyatni barqarorlashtirishda asosiy rol o'ynaydi, degan tushunchani qo'llab-quvvatlaydi. Shuningdek, ular oila a'zolari nikoh yoki oilada maqom rollarini o'z zimmlariga olishlarini ta'kidlashadi. Oila va uning a'zolari jamiyatning gullab-yashnashi va rivojlanishiga yordam beradigan muayyan funksiyalarni bajaradilar. Nazariy yondashuvlarni chuqur o'rganish oila-nikoh munosabatlarini hozirgi kundagi transformatsiya jarayonlarini tadqiq etishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

ASOSIY QISM

Oila-nikoh munosabatlarini ijtimoiy jihatdan o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu munosabatlar jamiyatning asosiy tuzilmasini tashkil etib, uning barqarorligiga va rivojlanishiga bevosita ta'sir o'tkazadi. Ularni o'rganish ijtimoiy munosabatlar va oilaviy barqarorlikka ta'sir qiluvchi omillarni tushunish va tahlil qilish imkonini beradi. O'rganish jarayonida biz quyidagi jihatlarni qamrab olishimiz mumkin: jamiyat barqarorligini ta'minlash, avlodlar o'rtasidagi uzviylik, gender munosabatlarini tushunish, ajralishlar va uning oqibatlarini anglash, oiladagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni o'rganish, sotsial o'zgarishlarni kuzatish, global o'zgarishlar kontekstida oilani va migratsiyani o'rganish. Bu jihatlarni kompleks o'rganishda esa bizga nazariy yondashuvlar yordam beradi.

“Strukturaviy-funksionalizm” yondashuvi muayyan tuzilmalar va ularning jamiyatni barqaror tutishga bo'lgan funksiyalari orqali tahlil qiladi. Oila jamiyatning asosiy ijtimoiy institutlaridan biri sifatida qaraladi va uning funksiyalari bu yondashuv doirasida quyidagi jihatlari o'rganiladi.

- Oila jamiyatda asosiy funksiyalarni bajaradi, jumladan, nasl davom ettirish, farzandlarni ijtimoiylashtirish, iqtisodiy ta'minot va hissiy qo'llab-quvvatlash. Ushbu yondashuv oilaning vazifalarini qanday bajarayotganini va mehnat migratsiyasi, iqtisodiy o'zgarishlar yoki texnologik taraqqiyot kabi omillar bularni qanday o'zgartirayotganini tahlil qiladi.

- Strukturaviy-funksionalizm oila barqaror jamiyatning muhim qismi va oila-nikoh munosabatlari orqali jamiyatdagi tartib va barqarorlik saqlaydi deb hisoblaydi. Ushbu nazariya nikoh va oilaning jamiyatdagi ijtimoiy tartibni qo'llab-quvvatlashda qanday o'rin tutishini ham o'rganadi.

- Qarama-qarshi jins vakillarning jamiyatda va oilada o'ziga xos funksiyalari bor, deb hisoblanadi. Unga ko'ra, erkaklar ko'proq tashqi iqtisodiy faoliyatga, ayollar esa uy va farzand tarbiyasiga javobgardir. Ammo zamonaviy sharoitda bu rollar qanday o'zgarayotgani va bu o'zgarishlar oilaning funksiyalariga qanday ta'sir qilayotgani ham tahlil qilinadi.

Ota-onalar ham bolalarga gender rollarini o'rgatishadi. Gender rollari oilaning iqtisodiy funksiyasining muhim qismidir. Funktsionalist Talkott Parsons oilani ijtimoiy tizimning barqarorligini ta'minlaydigan asosiy ijtimoiy institut deb hisoblaydi. Oilani ikkita asosiy funksiyasi bor: birinchisi, bolalarni ijtimoiylashtirish; ikkinchisi, kattalar orasidagi hissiy qo'llab quvvatlashni ta'minlashdir. Har bir oilada instrumental va ekspressiv rollardan iborat mehnat taqsimoti mavjudligini ta'kidlagan [5, - B.22-38]. Erkaklar oilada asosiy rollarni o'z zimmalariga olishga moyil bo'lib, bu odatda oiladan tashqarida moddiy yordam ko'rsatadigan va oila maqomini o'rnatadigan ishlarni o'z ichiga oladi. Ayollar, odatda, bolalarni tarbiyaviy, hissiy, jismoniy jihatdan parvarishlash va oila ichidagi mehnatni o'z ichiga olgan ekspressiv rollarni o'z zimmalariga olishga moyildirlar [6, - B.463-47].

Funksionalistlarning fikricha, rollarning jinsga qarab farqlanishi oilalarning muvozanatli va muvofiqlashtirilgan bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. Oilaning har bir a'zosi butun oilaning faoliyatini ta'minlash uchun muayyan rol va funksiyani bajaruvchi sifatida qaraladi. Har bir oila a'zosining ijtimoiy tan olingan roli bor, bu oila ichidagi maqom uchun ichki raqobatni va tashqi jamiyatda oilaning mavqeiga nisbatan noaniqlikni kamaytiradi. Agar oila a'zolari ushbu rollardan chetga chiqsa, oila o'z muvozanatidan chiqib ketadi.

“Tanqidiy” yondashuv oila-nikoh munosabatlarida mavjud ijtimoiy tengsizliklarni tahlil qiladi. Bu nazariya jamiyatdagi kuch va hokimiyat munosabatlari oilaga qanday ta'sir qilishini o'rganadi.

- Bu yondashuv oilani iqtisodiy va ijtimoiy ziddiyatlar maydoni sifatida ko'radi. Oila ichidagi kuch, moliyaviy nazorat va resurslarni taqsimlash masalalari, erkaklar va ayollar o'rtasidagi gender tengsizligi hamda sinfiy farqlar o'rganiladi.

- Oiladagi patriarxal tuzilmani tanqid qiladi va erkaklarning ayollar ustidan hokimiyatini ta'minlashdagi oila rolini tahlil qiladi. Bu nazariya oila va nikoh munosabatlaridagi gender tengsizligi, jinsiy rol taqsimoti, oiladagi majburiyatlarning noteng taqsimlanishi masalalarini chuqurroq o'rganishga yordam beradi.

- Oilani kapitalizmning bir qismi sifatida ko'radi va oiladagi munosabatlar kapitalistik tuzum orqali shakllanishini ta'kidlaydi. U mehnat migratsiyasi kabi iqtisodiy o'zgarishlarning oilaga qanday iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir ko'rsatishini tahlil qiladi.

“Tanqidiy” yondashuv namoyondalari oilalar xususiy tuzilmalar sifatida ta'riflanganligini, buning oqibatida oilaviy masalalarni faqat oila ichidagilarga taalluqli masalalar sifatida ko'rishga sabab bo'lganligini ta'kidlashadi. Jiddiy masalalar, jumladan, oiladagi zo'ravonlik va bolalarga nisbatan zo'ravonlik, jinslar o'rtasidagi tengsizlik, oilaviy mulkni teng ravishda tasarruf etish huquqi va boshqalar tarixan davlat, yuridik yoki politsiya yurisdiksiyasidan tashqarida deb hisoblangan.

Shuning uchun bu yondashuvning yo'nalishlaridan biri oilaviy hayotdagi hokimiyat tengsizligining siyosiy-iqtisodiy kontekstini ta'kidlashdir. Oila ko'pincha boshpana emas, balki jamiyatdagi hokimiyat uchun kurashning oqibatlari seziladigan maydondir. Ushbu hokimiyatni amalga oshirish ko'pincha oilaviy maqom rollarining farqlanishi va bajarilishini talab qiladi. Nikoh kuchiga oid tadqiqoti shuni ko'rsatdiki, qiymat manbalariga eng ko'p kirish imkoniga ega bo'lgan kishi eng ko'p kuchga ega [7].

Pul eng qimmatli manbalardan biri bo'lganligi sababli, uydan tashqarida haq to'lanadigan mehnatda ishlagan erkaklar uyda ishlaydigan ayollarga qaraganda ko'proq kuchga ega edilar. Oilaviy mehnat taqsimoti bilan bog'liq nizolar ham nikohdagi kelishmovchiliklarning keng tarqalgan manbai bo'lib qoladi. Uy mehnati hech qanday ish haqi bermaydi va shuning uchun kuch ham yo'q. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, erkaklar uy ishlarini ko'proq bajarsa, ayollar o'z nikohlarida ko'proq qoniqish hosil qiladi, bu esa turli mojarolar va nizoli holatlarni kamaytiradi [8].

“Simvolik interaksionizm” nazariyasi odamlar o'rtasidagi kundalik aloqalarga va bu aloqalarning ma'nosi va simvolik ahamiyatiga e'tibor qaratadi. Oila-nikoh munosabatlarini o'rganishda ushbu nazariya shaxslararo munosabatlar va ularning jamiyatdagi rollarini tushunishga yordam beradi.

- Simvolik interaksionizm nikohdagi erkak va ayol, ota-ona va farzandlar orasidagi munosabatlar qanday qurilishini tahlil qiladi. Masalan, har bir oila a'zosining jamiyatda yoki oilada qanday rollar qabul qilgani va bu rollarning ma'nosi o'rganiladi.

- Nikohda shaxslar o'rtasida foydalaniladigan til, imo-ishoralar va boshqa simvolik ma'nolarni o'rganadi. Masalan, oilada "sevgi", "ishonch" yoki "hurmat" kabi tushunchalar qanday beriladi va bu tushunchalar nikohdagi munosabatlarga qanday ta'sir qiladi.

- Oila ichidagi muloqot usullari, hissiy munosabatlar va tenglikka oid masalalar (masalan, qarorlar qabul qilishdagi o'zaro kelishuv) bu nazariya doirasida tahlil qilinadi. Interaktivistlar dunyoga ramzlar va ularga berilgan ma'nolar nuqtai nazaridan qarashadi [9] Oilaning o'zi ramzdir. Ba'zilar uchun bu ota, ona va bolalar; boshqalar uchun, bu hurmat va rahm-shafqatni o'z ichiga olgan har qanday ittifoqdir. Interaktivistlar oila obyektiv, aniq haqiqat emasligini ta'kidlaydilar. Boshqa ijtimoiy hodisalar singari, u ham ijtimoiy me'yorlar va doimiy o'zgaruvchan ma'nolar oqimiga bo'ysunadigan ijtimoiy konstruksiyadir.

Interaktivistlar, shuningdek, har bir a'zosining oilaviy maqomi rollari ijtimoiy jihatdan qanday tuzilganligini tan oladilar, bu odamlar ijtimoiy xulq-atvorni qanday qabul qilishlari va talqin qilishlarida muhim rol o'ynaydi. Interaktivistlar oilani rol o'yinchilari yoki "aktyorlar" guruhi sifatida ko'rishadi, ular oila qurish uchun o'z qismlarini ijro etish uchun birlashadilar. Bu rollar talqin qilinishi kerak. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida, masalan, "yaxshi ota" o'z farzandlarining moliyaviy xavfsizligini ta'minlash uchun ko'p mehnat qilgan. Bugungi kunda "yaxshi ota" - bu ishdan tashqari vaqtni o'z farzandlarining hissiy farovonligini, ijtimoiy ko'nikmalarini va intellektual o'sishini rag'batlantirish uchun sarflaydigan kishi - qaysidir ma'noda ancha qiyinroq vazifa.

Shuning uchun ramziy interaksionizm bizning e'tiborimizni "oddiy" oila nima ekanligini va uning qanday ishlashi kerakligini belgilaydigan me'yorlar qanday paydo bo'lishiga qaratadi. Oila a'zolarining xulq-atvorini muvofiqlashtiradigan qoidalar va umidlar, kelishuvlar yashirin yoki yashirin bo'lsa ham, ijtimoiy jarayonlar va qo'shma kelishuvning mahsulidir. Shu nuqtai nazardan, normalar va ijtimoiy konvensiyalar funksional talablar yoki teng bo'lmagan kuch munosabatlari bilan doimiy ravishda mustahkamlangan deb hisoblanmaydi. Aksincha, oila tuzilmalarini yangi vaziyatlarda tushunarli qilish va ularga o'z faoliyatini va barqarorligini ta'minlash uchun doimiy ijtimoiy o'zaro ta'sirlardan yangi normalar va ijtimoiy konvensiyalar paydo bo'ladi.

Yana bir klassik nazariy yondashuvlardan biri bo'lgan "Konflikt" nazariyasi oilani ijtimoiy tengsizlik, hokimiyat va resurslar uchun kurash maydoni sifatida tasvirlaydi. Ko'pincha oila-nikoh munosabatlaridagi gender va ijtimoiy sinflar o'rtasidagi kuchlar munozaratini, munosabatlar jarayonida yuzaga keladigan ziddiyatli vaziyatlar va qarama qarshiliklarni ifodalaydi va jarayon ijtimoiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi deb hisoblaydi.

"Konflikt" nazariyasi quyidagi jihatlarni ko'rib chiqadi: moliyaviy mablag'lar, vaqt, e'tibor taqsimoti natijasida yuzaga keladigan ziddiyatlar, oiladagi gender rollari va ularning o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan holatlar, ularni nikoh munosabatlariga ta'siri, jamiyatdagi turli islohotlar yoki o'zgarishlarning oilaviy strukturaga ta'siri oilaviy munosabatlardagi konfliktlarning jamiyatga ta'siri va ijtimoiy oqibatlari [10].

"Tizimlar" nazariyasiga ko'ra, oila bu murakkab tizim bo'lib, o'zaro bog'liq bo'lgan subyektlardan iboratdir. Unga ko'ra har bir oila a'zosi bir-biriga ta'sir o'tkazadi va oiladagi muvozanatni saqlash uchun har kim o'ziga berilgan vazifalarni bajaradi. Ratsional tanlash nazariyasida esa, oilaviy munosabatlar, nikoh qarorlari faqat shaxsning o'z manfaatlariga erishish uchun amalga oshiriladi.

Chunki, odamlar hayotiy qarorlarni qabul qilishda albatta o'z manfaat va zararlarni inobatga olishadi. Bundan tashqari, oilada ham har bir kishi boshqasiga nisbatan foyda olish uchun resurslarini o'zaro almashadi. Bu resurslar iqtisodiy bo'lishi mumkin, emotsional qo'llab-quvvatlash, vaqt ajratish sifatida bo'lishi mumkin. Erkaklar asosan moddiy, ayollar esa emotsional tarafdin bir-birlariga oila ichida tirgak bo'ladi. Agarda oiladagi kimdir bundan qo'llovni his qilmasa bu albatta oilaviy munosabatlarning zaiflashishiga yoki tugatilishiga sabab bo'ladi.

"Transformatsiya" nazariyasi ham jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlarni o'rganadi. Oila-nikoh munosabatlari kontekstida olib qarasaq, global sharoitdagi transformatsiyalarga qanday moslashayotgani, yangi hayotiy tendensiyalarning oilaviy hayot va qadriyatlarini o'zgartirayotganini, yangi madaniyatlar bilan aloqalar, turmush tarzi va qadriyatlarining o'zgarishi, misol uchun, gender rollari, ota-onalik vazifalari, nikohdagi o'zgarishlar o'rganiladi. Bu

nazariya madaniy hodisalarning oilaviy munosabatlarga ta'sir o'tkazishini ham tushunishga yordam beradi.

XULOSA

Oila-nikoh munosabatlarini ijtimoiy jihatdan o'rganishda yuqoridagilardan tashqari yana bir nechta nazariy yondashuvlar mavjud bo'lib, ularni o'rganish bizga oila-nikoh munosabatlarini chuqur tushunish, ijtimoiy muammolarni hal etish, samarali ijtimoiy islohatlar olib borish asosida jamiyatda ijobiy o'zgarishlarni amalga oshirishga yoram beradi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda dolzarb bo'lgan oila-nikoh munosabatlari nafaqat O'zbekistonda balki butun dunyoda o'zgarishlarga uchramoqda. Bu o'zgarishlarni yaxshi tomonga yo'naltirish davlat va jamiyat oldida turgan asosiy vazifalardan biridir. Shu sababli, O'zbekistonda oila institutini takomillashtirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan [11]. Yurtimizda ajralishlar, oiladagi suitsitlar va to'liqsiz oilada voyaga yetayotgan bolalar sonining yildan-yilga ortishi kuzatilmoqda [12]. Bunga quyidagi bir nechta omillar sabab bo'lmoqda deb hisoblaymiz:

Birinchidan, ijtimoiy qadriyatlar o'zgarimoqda, jamiyatda oila va nikohga bo'lgan munosabatlar va qarashlarning o'zgarishi, mustaqil va majburiyatlarsiz hayotga bo'lgan qiziqishning ortishi;

Ikkinchidan, iqtisodiy qiyinchiliklar va moliyaviy barqarorlikning yo'qligi oilaviy munosabatlarga salbiy ta'sir o'tkazmoqda;

Uchinchidan, yoshlarning oila qurishga ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatdan tayyor emasligi;

To'rtinchidan, ish o'rinlarining yetishmasligi natijasida yuzaga kelgan tashqi mehnat migratsiyasi. Uzoq vaqt oilaviy muhitda uzoqda bo'lish o'z-o'zidan oilaviy munosabatlarni zaiflashtiradi.

Ajralishlar sonining ortishi doim ham faqat salbiy omillar bilan bog'liq emas. Ba'zan bu nikohdagi muammolarni tan olish va hal qilish istagini ham ko'rsatadi. Tashqaridan aslida mavjud lekin, munosabatlar va rollar umuman nosog'lom bo'lgan, faqat farzandlar, ota-ona sababli yoki qandaydir manfaat tufayli majburlikdan davom etayotgan "oilalar" ham talaygina, deb ayta olamiz. Shu sababli, oila-nikoh munosabatlarini nazariy jihatdan chuqur o'rgangan holatda keng ko'lamli ijtimoiy tadqiqotlar o'tkazish va ular asosida islohotlar amalga oshirish hozirgi kunda jamiyat oldidagi bunday muammolari oldini olish, kamaytirish yoki oqibatlarini yumshatish uchun zarur deb hisoblaymiz.

Adabiyotlar/ Литература/ References:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Rasmiy nashr. – Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti, 2023. – B. 43.
2. Форобий Абу Наср. Рисолалар. – Тошкент, 1975.
3. Imom G'azzoliy. Mukoshafat ul-qulub. – Toshkent, 2002.
4. Abu Ali ibn Sino. Tib qonunlari. 1-kitob. Toshkent, 1954.
5. Парсонс Т., Сторер Н. Научная дисциплина и дифференциация науки/ Социология науки. Под ред. С.А.Лебедева. – М.: 2000; Парсонс Т. Система современных обществ. – М.: Аспект Пресс, 1997. – С.117-136.
6. Crano William and Joel Aronoff. A cross-cultural study of expressive and instrumental role complementarity in the family. American Sociological Review, 43(4):1978. – P.463–471.
7. Blood Robert Jr. and Donald Wolfe. Husbands and wives: The dynamics of married living. Glencoe, IL: The Free Press, 2012. urn:oclc:record:654903343urn:lcp:husbandswivesdy00bloo:lcpdf:a64534bc-f323-42a9-8806-b32e2da77a46urn:lcp:husbandswivesdy00bloo:epub:7452ec43-bcc0-4678-a78f-de8421ea30cd
8. Coltrane Scott. Research on household labor: Modeling and measuring the social embeddedness of routine family work. Journal of Marriage and the Family, 62:1209-1233. 2000.

9. LaRossa, Ralph and Donald Reitzes. Symbolic interactionism and family studies. Sourcebook of Family Theories and Methods: A Contextual Approach. New York: Plenum Press, 1993.
10. <https://cyberleninka.ru/article/n/nikoh-oila-munosabatlari-barqarorligini-ta-minlashning-ijtimoiy-psixologik-xususiyatlari/pdf>
11. <https://lex.uz/docs/-5193551?ONDATE2=05.04.2022&action=compare>
12. <https://daryo.uz/2023/08/08/ozbekistonda-nikohdan-ajralishlar-soni-eng-kop-hudud-malum-qilindi>

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

8 ЖИЛД, 1 СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ

ТОМ 8, НОМЕР 1

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

VOLUME 8, ISSUE 1

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000